

TALABA YOSHLARGA “O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI” FANINI O‘QITISHNING DOLZARB AHAMIYATI

Azimova Shoxista Salohiddinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Azal-azaldan yurtimiz jahon sivilizatsiyasining ajralmas bir qismi sifatida yaxlit bir geografik hudud tarixning turli bosqichlarida turli-xil qabilalarning migratsiyasi, bu hududdagi dastlabki shahar-davlatlarning paydo bo‘lishidan tortib to bugungi zamonaviy davlatchiligimizga qadar nechalab tarixiy voqea-hodisa: o‘zaro urush-qirg‘inbarotlar, islom renessanisi, gullagan imperiyalardan davlat-u xonliklarning tanazzuli kabi tarixiy jarayonlar tariximiz zarvaraqlaridan o‘chmas joy oldi.

Kalit so‘zlar. Tarix, talaba-yoshlar, qadimgi davr, o‘rta asrlar, eng yangi tarix, manbashunoslik, davlat va jamiyat.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda o‘z tarix va madaniyatimizni qaytadan tiklash va uni yosh avlodga asl holicha yetkazish maqsadida dastlabki yillardanoq, Prezidentimiz I.A.Karimovning O‘zbekiston tarixini qaytadan xolisona yaratish vazifasini tarixchilar oldiga vazifa qilib qo‘yishi tarix fanini o‘rganishda muhim qadam bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 16-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida “O‘zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish” to‘g‘risidagi Farmoyishiga muvofiq hamda xalqimizning yangi tarixini o‘rganish va yozish, mamlakatimiz hayotida sodir bo‘layotgan buyuk o‘zgarishlar va uning jahonshumul tarixiy ahamiyatini ko‘rsatishni amalga oshirish maqsadida markazda “O‘zbekistonning yangi tarixi”ni

yo'zish va uni nashr etish bo'yicha ekspertlar guruhi ishladi¹. Bir necha yil mobaynidagi mashaqqatli mehnat natijasida 2000-yilda 3 jildlik "O'zbekiston tarixi" yaratildi. Va eng muhimi, O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirish yo'lida bir qancha muhim qadamlar tashlandi. 1993-yil 27-28-oktyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 50 yilligi munosabati bilan "Tarixshunoslik va manbashunoslik" bo'limi tomonidan "Mustaqillik davri O'zbekiston tarixshunosligi" mavzusida ikkinchi mintaqalararo "Tarixshunoslik o'qishlari" tashkil etildi va o'tkazildi. 2003-yil 3-4-dekabr kunlari bo'lim tomonidan "O'zbekistonda tarix fani: taraqqiyot yutuqlari va muammolari" mavzusida uchinchi "Tarixshunoslik o'qishlari" o'tkazildi. Ushbu sa'y-harakatlar bilan tarix fanini o'qitish va uni targ'ib etish kuchaydi.

2020-2021 o'quv yilidan OTMlarning barcha 1-kurs bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani o'tiladigan bo'ldi. Bu ham yosh kadrlarni o'z yurti tarixiga bo'lgan qiziqish, vatanga muhabbat va sadoqat g'oyalarni shakllanishida muhim o'rin tutadi. 2022-yil 28-yanvardagi Prezidentning 60-sonli farmoni bilan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu hujjatning 77-maqsvadi O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish deb nomlanib, unda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish mo'ljallangan². Bu ham tarix fani sohasiga bo'lgan e'tiborning mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Davlat va jamiyatdagi islohotlar hamda Oliy ta'lim tizimida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar bugungi kunda O'zbekistonda tarix fanini o'qitish bo'yicha bir qancha talab va muammolarni hal qilish kerakligi dolzarb vazifa sifatida qo'ymoqda. Bugungi kunda biz tarixchilarning oldimizda oliy ta'lim muassasalarida tarix fanini o'qitish bilan bog'liq quyidagi muammolar ko'zga tashlanmoqda:

– Birinchidan, tarix fanini o'qitishda an'anaviy dars o'tish metodining saqlanib qolayotganligi; bu tegishli OTM ning moddiy texnika bazasining pastligi bilan bog'liq

¹ <https://lex.uz/docs/-1638585>

² <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

bo'lishi mumkin. Biroq, dars mashg'ulotlarini noan'anaviy tarzda tashkil etish ko'p xarajat talab etmaydi. Eng achinarlisi shundaki, an'anaviy dars metodi auditoriyani bir xillikka, hatto, talabalarni tafakkur va fikr yuritishini torayishiga olib keladi. Shuningdek, ba'zi talabalarda fanga bo'lgan qiziqishni asta-sekin so'nishi, ularning iste'dodini yuzaga chiqmasligiga va bora-bora yalqovlashishiga olib keladi.

– Tarix fani mutaxassisliklari bo'yicha o'qitish jarayonida ishtirok etayotgan professor-o'qituvchilarning salohiyati va ularning zamonaviy yangiliklardan yiroqligi muammosi; Soha doirasida mahalliy OTM prof-o'qituvchilari bilan xorijiy mutaxassislar o'rtasidagi tajriba almashish, master klass darslari o'tkazish, grant loyihalar tayyorlash va fan doirasida hamkorliklarning qoniqarli tashkil etilmaganligi ham sohaviy muammolar ildizi hisoblanadi. Bugungi

kun tarix fani o'qituvchisi har tomonlama zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni bilgani holda darsni interfaol metodlar va uskunalar asosida tashkil qilishi lozim. Ammo, hali-hanuz yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalana olmaydigan kadrlar sohada uchrab turibdi. Fanga mas'ul prof-o'qituvchilarning auditoriyaga kirishda dars mashg'ulotlariga yetarlicha tayyorlanib kirmaslik, mavzusi doirasida yangi o'zgarish va islohotlar haqida talabalarga ma'lumot bera olmaydigan prof-o'qituvchilar tizimda mavjud. Shuningdek, o'qituvchini auditoriya dastlab kirishda etikasidagi muammolar ham o'qituvchi va talaba o'rtasidagi dars sifatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Tarix fani

yuzasidan tegishli mutaxassislik talabalari uchun professor-o'qituvchilar tomonidan mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi; mutaxassislik doirasida kurs ishi topshiriqlari berish va uni talabalardan qabul qilishdagi qo'pol xatolar (kurs ishi yozishning zamon talab darajasida emasligi hamda ma'lumotlarning takrorlanishi), fan bo'yicha amaliyotlarda talabalarning qiziqishi va yo'nalishiga qarab, tegishli davlat muassalari bilan OTM o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yilmaganligi hamda shaffoflikning yo'qligi, sohaviy amaliyotlarni tez-tez amalga oshirilib turilmasligi talabalarda erkin ravishda shakllanadigan bilim va malakaning yetishmasligiga olib keladi.

Bugungi kunda professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilayotgan fan doirasidagi darslik sifati masalasi; tarix o'qitishda foydalanilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalarining an'anaviy shaklda yaratilayotganligi, ya'ni darslikda har mavzu bo'yicha talabalar uchun tafakkur qilishga undaydigan innovatsion metodlar asosida tuzilgan masala va topshiriqlar (Finlandiya va Singapur ta'lim tizimida mavjud innovatsion darsliklar) ning mavjud emasligi, bu esa talabalarni bezdirib, faqat yodlash usuli natijasida tafakkur va mantiqiy fikrlash qobiliyatini pasayishiga olib keladi.

Tegishli fan mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun auditoriya va fanni egallashda yana ham qulaylik tug'diruvchi elektron jihozlar, tarixiy davrlar asosida jihozlanmagan auditoriyalar, ba'zi tarix fakultetlarda tarix burchaklarning yetarlicha talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligi, Respublika rahbariyatining tarix fani sohasini rivojlantirish hamda OTM larning tarix fakultetlari moddiy texnik bazasini yaxshilashga yetarli e'tibor berilmasligi ham fanning rivoji va uni targ'ibot ishlarida sustkashlikka yo'l qo'yilishiga sabab bo'ladi. Talabalarni muzeyga jalb qilish muammosi va muzeyshunoslik madaniyatining pastligi, fan yo'nalishlari bo'yicha ba'zi turdagi muzeylarning tashkil etilmaganligi fan o'rganuvchilari uchun bilim va ko'nikmalarini o'sishidagi to'siqlardan biri sanaladi.

– Achinarlisi shuki, tarix fanini o'qitishda diniy va dunyoviylik o'rtasida murosasozlikning saqlanib qolayotganligi; darsliklar yaratishda diniy qarashlarning hisobga olinmasligi, hatto, prof-o'qituvchilar orasida diniy saviyaning yetishmasligi – e'tiqodi islom bo'lgan, diniy qadriyatlari rivojlanib kelayotgan jamiyat a'zolarini tarix faniga bo'lgan eskicha qarashlarini saqlanib qolishiga va jamiyatda fanni qo'llab-quvvatlovchi auditoriyani kamayishiga sabab bo'ladi. tarix fanini rivojlantirish maqsadida targ'ibot va tashviqot ishlarining yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi va samaradorlikning pastligi; OTM larning tarix fakultetlarida xalqaro, mahalliy ilmiy anjumanlarning ko'proq rasmiyatchilik uchun o'tkazilishi, natija-oqibatlar haqida to'xtalib o'tirilmasligi tizimdagi muammolardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi sanab o'tilgan tarix fani

o'qitish bilan bog'liq OTM lardagi muammolar hozirgi O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirish va uni o'qitish bilan bog'liq jarayonlardagi eng jiddiy to'siqlar hisoblanadi. Ushbu muammoni bartaraf etishda avvalambor, hukumat masalani birinchi darajaga qo'ya bilishi, fanni rivojlantirishiga mas'ul tashkilot, muassalar bilan hamkorlik asosida muammoni yechimini izlash, OTM larning tegishli fakultetlarini tubdan isloh qilish va moddiy texnik bazasini yaratish uchun hukumat moddiy ta'minotni yo'lga qo'yishi, fan doirasida tegishli ta'lim va tadqiqot muassasalari bilan chet el muassasalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, ilg'or tajribalarni yurtimiz tegishli muassasalarida joriy etishga muhim ustuvor vazifa sifatida qarashi lozim. Yuqorida ta'kidlangan muammolarni hal qilish, yechimini izlash va topish orqali fanni rivojlantirish nazariyalariga ega bo'lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O'zbekistonning yangi tarixi”ni tayyorlash va nashr etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 16-dekabrda 445-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/-1638585>

2. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2022-yil 28-yanvar PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3. Ўзбекистонда тарих фани: ютуқлар ва ривожланиш муаммолари. Тарихшунослик ўқишлари – 2004 материаллари (Историческая наука в Узбекистане: достижения и проблемы развития. Материалы историографических чтений – 2004). II қисм. [Масъул муҳаррир Д. Алимова]. Тошкент, 2006. 115 бет.